

ARAB TILINI O'RGATISHDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR VA METODLAR

ADVANCED TECHNOLOGIES AND METHODS IN DEVELOPING LISTENING SKILLS IN TEACHING ARABIC

Daminov Bahromjon Zakirdjanovich

*O'zXIA Arab tili va adabiyoti
al-Azhar kafedrasi katta o'qituvchisi
dbaha167@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini samarali rivojlantirishning ilg'or metodlari va texnologiyalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblangan ushbu ko'nikmani shakllantirishda audiovizual va interfaol texnologiyalar, Shadowing, "Top-down" va "Bottom-up" yondashuvlari, shuningdek, Blended Learning modelining o'rni tahlil qilinadi. Maqolada til o'rgatish jarayonini uch bosqichli model asosida tashkil etish va adaptiv mashqlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Arab tili, Tinglab tushunish, Audiovizual texnologiyalar, Aralash o'qitish.

Аннотация: Данная статья посвящена передовым методам и технологиям эффективного развития навыка аудирования при обучении арабскому языку. В исследовании анализируется роль аудиовизуальных и интерактивных технологий, метода Shadowing, подходов «Top-down» и «Bottom-up», а также модели Blended Learning в формировании данного ключевого компонента коммуникативной компетенции. В статье описываются механизмы повышения эффективности обучения путем организации учебного процесса на основе трехэтапной модели и применения адаптивных упражнений.

Ключевые слова: Арабский язык, Аудирование, Аудиовизуальные технологии, Смешанное обучение.

Abstract: This article focuses on advanced methods and technologies for the effective development of listening comprehension skills in Arabic language teaching. The study analyzes the role of audiovisual and interactive technologies, the Shadowing technique, the "Top-down" and "Bottom-up" approaches, and the Blended Learning model in shaping this crucial component of communicative competence. The article elucidates mechanisms for improving learning efficiency by structuring the educational process based on a three-stage model and employing adaptive exercises.

Keywords: Arabic Language, Listening Comprehension, Audiovisual Technologies, Blended Learning.

Chet til, xususan arab tilini o'rgatishda tinglab tushunish (listening comprehension) ko'nikmasi kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu ko'nikma talabalarning eshitilgan axborotni idrok etish, semantik birliklarni farqlash va nutq ma'nosini mantiqan tushunish qobiliyatlarini shakllantiradi.

Zamonaviy ta'lim tizimida bu jarayonni samarali tashkil etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, multimediyali vositalar, va interfaol metodlar keng qo'llanilmoqda.

1. Audiovizual va interfaol texnologiyalar asosida tinglab tushunishni rivojlantirish

Arab tilida tinglab tushunishni rivojlantirishda autentik audio va video materiallardan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Tillayeva⁴⁰ ta'kidlaganidek, "innovatsion pedagogik texnologiyalar o'qitish jarayonida multimediya vositalari, video va audio resurslar yordamida tabiiy til muhitini yaratish orqali til o'rganish samaradorligini oshiradi". Shuningdek, shadowing (eshitilgan nutqni so'zma-so'z takrorlash) metodi talaffuz, intonatsiya va tinglab tushunish tezligini oshiruvchi ilg'or amaliy texnikadir.

2. "Top-down" va "Bottom-up" yondashuvlar

Tinglab tushunish jarayoni ikki asosiy yondashuv orqali amalga oshiriladi: "Top-down" yondashuvi – matnning umumiy mazmunini anglash, kontekst va ilgari o'rganilgan bilimlardan foydalanish asosida tinglash; va "Bottom-up" yondashuvi – eshitilgan nutqni fonetik, leksik va grammatik darajada tahlil qilish orqali mazmunni aniqlash. Bu ikki yondashuvning integratsiyasi talabalarda analitik va mantiqiy eshitish ko'nikmasini shakllantiradi.

3. Blended learning va mobil texnologiyalar

Aralash ta'lim (blended learning) modeli tinglab tushunish mashg'ulotlarini onlayn va oflayn formatlarda uyg'unlashtirish imkonini beradi. Mamadiyorova va Ashurova⁴¹ o'z tadqiqotida ta'kidlaydi: "Mobil ilovalar va onlayn resurslardan foydalanish talabalarga mustaqil tinglash, talaffuzni mashq qilish va o'z tezligida o'rganish imkonini beradi."

4. Tinglab tushunishda differensial va adaptiv texnologiyalar

Zamonaviy e-ta'lim platformalari (masalan, Moodle, Edmodo, Canvas) orqali tinglab tushunish mashqlari talaba darajasiga moslashtirilgan holda taqdim etilishi mumkin. Bu holatda har bir talaba uchun audio materialning murakkablik darajasi avtomatik tarzda moslashtiriladi. Bu texnologiya individual ta'lim tamoyiliga asoslanadi va har bir o'quvchining ehtiyojini inobatga oladi.

5. Arab tili tinglab tushunishda interfaol mashqlarni qo'llash

Arab tilini o'qitishda tinglab tushunish jarayonini faollashtirish uchun quyidagi mashq turlari samarali deb topilgan:

Mashq turi نوع التمرين	Qo'llaniladigan metod المنهج المستخدم	Kutilayotgan natija النتيجة المتوقعة
الأسئلة والأجوبة على أساس المحتوى الصوتي Audiomazmun asosida savol-javob	الاستماع من الأعلى إلى الأسفل (Top-down listening)	فهم الفكرة الرئيسية Asosiy fikrni tushunish

⁴⁰ Tillayeva, Sh. M. (2024). Methods of Using Innovative Pedagogical Technologies in Teaching and Learning a Foreign Language. Modern Education and Development, 24(4).

⁴¹ Mamadiyorova, S. O., Ashurova, D. Modern Education and Development, Vol. 15, No. 10. 288-292 s

تمييز الكلمات (الإملاء السمعي) So'zlarni farqlash (dictation)	الاستماع من الأسفل إلى الأعلى (Bottom-up)	تحسين دقة الاستماع Eshitish aniqligini oshirish
التكرار الظلي Shadowing – takrorlash	المنهج السمعي (Audiolingual metod)	تنمية النطق والتتغيم Talaffuz va intonatsiyani rivojlantirish
المناقشة / المناظرة Muhokama / debat	المنهج التواصل (interfaol metod)	تنشيط مهارة التحدث Asosiy g'oyani tushunish
Role-play) Lol o'yinlari	(Interactive approach)	محاكاة المواقف التواصلية الواقعية Real kommunikativ vaziyatni modellash

Xulosa qilib aytganda, arab tilini o'qitishda tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda ilg'or texnologiyalarni qo'llash jarayonni interfaol, shaxsga yo'naltirilgan va kommunikativ tusga keltiradi. Integratsiyalashgan metodlar — audiovizual, shadowing, top-down/bottom-up, blended learning — o'quvchilarda eshitilgan matnni tushunish, ma'noni ajratish va nutqga javob berish ko'nikmalarini shakllantiradi.

1. Tinglashdan avvalgi bosqich

Maqsad: Talabalarni avvalgi bilimlarni faollashtirish va mazmunni taxmin qilish orqali matnni tushunishga tayyorlash.

1- mashq: Aqliy hujum.

1. ما الذي يمكن أن نراه أو نسمعه في المطار؟
2. ما هي الأشياء التي يحملها المسافر عادة؟
3. ماذا يقول موظفو المطار للركاب؟
1. Aeroportda nimalarni ko'rishimiz yoki eshitishimiz mumkin?
2. Yo'lovchilar odatda o'zlari bilan nimalarni olib yurishadi?
3. Aeroport xodimlari yo'lovchilarga nima deyishadi?

2-mashq: So'zlar bilan tanishuv.

الطائرة – جواز السفر – التذكرة – الحقيبة – البوابة – المسافرين – الرحلة

1. Tinglash jaroyoni bosqichi.

Maqsad: Umumiy ma'lumotlarni va aniq tafsilotlarni olish.

3- mashq: umumiy tinglash

استمع إلى النص ثم أجب بـصح أو خطأ:

1. حارث يعيش في بغداد الآن.
2. الشركة في جدة.
3. مكة مدينة صغيرة.
4. حارث يذهب إلى مكة لأداء العمرة.

4- mashq: Mufassal tunglash. Test.

1. من مدير الشركة؟		
(أ) أحمد	(ب) حارث	(ج) خالد
2. كم تستغرق الرحلة من جدة إلى مكة؟		
(أ) نصف ساعة	(ب) ساعة	(ج) ساعتان
3. إلى أين يذهب حارث مع أسرته؟		
(أ) إلى المسجد	(ب) إلى الشاطئ	(ج) إلى السوق

3. Tilglashdan keying bosqich

Maqsad: Tilni muloqotda qo'llash va mazmunini tahlil qilish.

5-mashq. Quyidagi savollarga javob bering :

1. أين كان يعيش حارث؟

2. إلى أين انتقل؟

3. ماذا يفعل في جدة؟

4. ماذا يفعل في مكة؟

5. كم ساعة تستغرق الرحلة؟

6- maashq. Muloqot mashqi (Roll o'ynash)

في المطار:

1- talaba-aeroprt hodimi;

2- talaba – yo'lovchi;

- إلى أين تسافر؟

- كم ساعة تستغرق الرحلة؟

- هل معك جواز السفر؟

4. Yozish bosqichi:

biron shaharga qilgan saaring haqida 4-5 gapdan iborat hikoya yoz. Uni quyidagicha boshla:

سافرتُ إلى ... مع أسرتي. كانت الرحلة جميلة. زرنا ... واستمتعنا كثيرًا.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maulina, M., Ladjagang, R., & Nasrullah, R. (2023). Research Methods in Teaching Listening Skills Utilizing Technology Media. Journal of Education and Teaching (JET), 3(1), 69–83.

2. Mamadiyorova, S. O., & Ashurova, D. R. (2023). Using Technology to Enhance English Listening Skills in the Classroom. Modern Education and Development.

Mamadiyorova, S. O., Ashurova, D. Modern Education and Development, Vol. 15, No. 10. 288-292 s

3. Tillayeva, Sh. M. (2024). Methods of Using Innovative Pedagogical Technologies in Teaching and Learning a Foreign Language. Modern Education and Development, 24(4).

4. Gulzar, R. Q. (2024). Effective Ways of Teaching Listening Skills for EFL Students. International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences.

5. ResearchEdu (2024). Cognitive and Structural Approaches to Listening Comprehension in Language Learning. ResearchEdu Journal.